



Xalq so'zi

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 4-dekabr, № 253 (9148)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI ROSSIYA DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig'ilishida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining birinchi o'rinbosari Denis Manturov boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuvda Rossiyaning Nijniy Novgorod va Omsk viloyatlari, Boshqirdiston va Krasnoyarsk o'lkasi

rahbarlari ham ishtirok etdilar. Suhbat avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Rossiya

Prezidenti Vladimir Putinning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi. Oliy darajadagi uchrashuvlar

natijalariga ko'ra erishilgan kelishuvlarni qabul qilingan “Yo'l xaritasi” asosida amalga oshirilishi muhokama qilindi.

Savdo hajmi barqaror o'sib borayotgani, sanoat, energetika, transport, metallurgiya, kimyo va boshqa sohalarida qo'shma loyihalar amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tovar ayirboshlash sur'atini saqlab qolish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida, jumladan, sanoat zonalarida doirasidagi kooperatsiya loyihalarini jadallashtirish, hududlar va biznes darajasida faol hamkorlik aloqalarini davom ettirish bo'yicha muvofiqlashtirilgan choralar ko'rish muhim ekani ta'kidlandi.

Shu ma'noda, Toshkentda bo'lib o'tgan Hukumatlararo komissiyaning yig'ilishi va ishbilarmonlik tadbirlarining natijalari yuqori baholandi.

Shuningdek, uchrashuv doirasida Rossiyaning yetakchi kompaniyalari rahbarlari Prezidentimizga axborot texnologiyalari, energetika, elektrotexnika, mashinasozlik, kimyo, farmatsevtika, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatida loyihalarni amalga oshirish bo'yicha aniq rejalarini taqdimot qildilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

TOSHKENT SHAHRIDA YO'L HAKAKATINI BOSHQARISHNING ENG SAMARALI USULLARI JORIY ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 3-dekabr kuni Toshkentda transport boshqaruvini takomillashtirish va tirbandliklarning oldini olish choralarga doir taqdimot bilan tanishdi.

Keyingi yillarda poytaxtda jamoat transportini rivojlantirish bo'yicha ancha ishlar qilindi. Avtobuslar parki ikki barobarga kengaytirilib, ularning umumiy soni 1,9 mingga yaqinlashdi, qatnov intervali 30 daqiqadan 15 daqiqaga qisqardi. Natijada avtobuslardan foydalanuvchilarning soni kunlik 1,4 million nafarga yetdi.

Yer osti va yer usti metropoliten liniyalarining umumiy uzunligi 70,5 kilometrga yetkazilib, bekatlar soni 29 tadan 50 tagacha oshdi. Metro bir kunda 900 ming nafar yo'lovchiga xizmat ko'rsatmoqda.

Shahar ko'chalarida harakatni tashkil etishning texnik ishlari ko'lami kengayib, 2870 ta belgi almashtirildi, 2770 ta yangi belgi va 55 ta svetofor o'rnatildi.

Shu bilan birga, aholi va transport vositalari sonining o'sishi, shahardagi iqtisodiy jarayonlar natijasida yo'l infratuzilmasiga yuklama keskin ortmoqda. Poytaxtning asosiy transport yo'laklariga bosim 2 barobar ko'paygani, keyingi yillardagi 7-8 balli tirbandliklar odatiy holga aylangani ko'rsatib o'tildi. Jamoat transportidan foydalanish ulushi shaxsiy avtomobillarnikidan kamligicha qolmoqda. Bularning barchasi ekologik holatga ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelmogda.

Dunyo amaliyotida yo'l harakatini boshqarishning eng samarali usuli sifatida intellektual transport tizimi (ITS) keng qo'llanilmoqda. Mazkur yondashuvga ko'ra shaharlarda harakatni o'z vaqtida nazorat qilish, tahlilini olib borish va rejallashtirish markazlashgan

holda amalga oshiriladi.

Taqdimotda shu maqsadda Toshkent shahrida yagona yo'l harakatini tashkil etish markazini yaratish taklif qilindi.

Markaz transport va piyodalar oqimlarini tahlil qilish va modellashtirish, intellektual transport tizimini joriy etish hamda boshqarish, transport master-rejasi va karkasini ishlab chiqish va joriy qilish, elektr quvvatlash infratuzilmasini rivojlantirish, individual harakatlanish vositalaridan foydalanishni rag'batlantirish kabi vazifalar bilan shug'ullanadi.

Markaz intellektual transport tizimining operatori hisoblanadi. Mazkur platforma kameralar, datchiklar, “GPS” vositalari orqali yig'ilgan ma'lumotlarni, xususan, sun'iy intellekt-dan foydalangan holda tahlil qilib, tirbandliklar statistikasini yuritish va ularni bashorat qilish, marshrutlarni optimallashtirish, svetofor fazalarini adaptiv tarzda o'zgartirish, yo'l-transport hodisalari ro'y bergan paytda favqulodda xizmatlarni chaqirish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Tizimning joriy qilinishi natijasida yo'llarda transport harakatining o'rtacha vaqti va favqulodda xizmatlarning YTH joyiga yetib kelish vaqti qisqarishi, asosiy yo'llardagi tirbandliklar hamda yo'l-transport hodisalari kamayishi kutilmoqda.

Prezidentimiz takliflarni ma'qullab, pilot loyihani joriy yilning o'zidayoq ishga tushirib, kelgusi yillarda uni kengaytirish, 2030-yilga qadar uni hududlar bilan integratsiya qilishni topshirdi.

DAVLAT VA AHOI O'RTASIDAGI DOIMIY MULOQOTNING INSTITUTSIONAL ASOSLARINI MUSTAHKAMLASHNING ZAMONAVIY MODELI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga davlat idoralarining aholi bilan kommunikatsiyasi samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlar yuzasidan axborot berildi.

Mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli yangilanishlar jarayonida aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini ham takomillashtirish, Xalq qabulxonalarining imkoniyatlarini kengaytirish, faoliyatga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, jamoatchilik fikrini chuqurroq o'rganish va qarorlar qabul qilishda uni inobatga olish tobora dolzarb ahamiyatga ega bo'lib borayotgani ta'kidlandi.

Aholining kayfiyati, ehtiyoji va orzu-intilishlarini aniq hamda to'liq o'rganishda zamonaviy, professional sotsiologiya va tahliliy usullardan foydalanish zarurligi, bu islohotlar naqadar samarali bo'layotgani haqida xolis axborot olish hamda kelgusi istiqbolga mo'ljallangan taraqqiyot dasturlarini to'g'ri ishlab chiqishning muhim omili ekani ko'rsatib o'tildi. Prezidentimiz xalq bilan muloqot madaniyatini izchil yuksaltirish, fuqarolarni eshitish, ularning fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda qaror qabul

qilish davlat idoralari faoliyatida bosh mezon bo'lishi shartligini ta'kidladi.

Fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlarga nafaqat tezkor javob berish, balki ularni tizimli tahlil qilib, sotsiologik tadqiqotlar natijalari bilan solishtirish orqali tegishli yechimlarni taklif qilish, umuman, davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqot sifati hamda ishonchni mustahkamlash davlat va boshqaruv organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat idoralarining asosiy vazifalaridan biri ekani yana bir bor ko'rsatib o'tildi.

Hokimiyat va aholi o'rtasidagi doimiy muloqotning institutsional asoslarini mustahkamlab, yangicha yondashuvlarga asoslangan zamonaviy modelini shakllantirish, uni jamoatchilik fikrini o'rganish tizimiga bog'lash muhim ekani qayd etildi.

Mutasaddilarga xalq bilan muloqot mexanizmlarini yanada takomillashtirish, fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

KIMYO SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN REJALAR TAQDIMOTI

Prezident Shavkat Mirziyoyev kimyo sanoatida ishlab chiqarish va eksportni oshirish hamda tannarxni pasaytirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda kimyo sanoatini jadal rivojlantirish va raqamlashtirish bo'yicha aniq strategiya qabul qilingan. 2030-yilgacha tarmoq keskin qisqartirish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Dunyoda kimyo mahsulotlarining bozori tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Qo'shni mamlakatlarda 1 milliard dollarlik mahsulotlarga talab va logistika uchun qulay sharoitlar bo'lsa-da, mazkur salohiyatdan yetarlicha foydalanilmayotgani qayd etildi.

Taqdimotda mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash hisobiga yangi mahsulot turlarini o'zlashtirish va eksportni kamida ikki barobarga oshirish mumkinligi ta'kidlandi.

Joriy yilda Toshkent, Navoiy va Jizzax viloyatlarida “yashil” mineral o'g'itlar, sian tuzlari, kaliy ksantogenat, kaliy sulfati

xarajatlarga to'g'ri kelmogda. Sohada energiya tejamkor texnologiyalarni joriy qilish va raqamlashtirish orqali xarajatlarni keskin qisqartirish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Dunyoda kimyo mahsulotlarining bozori tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Qo'shni mamlakatlarda 1 milliard dollarlik mahsulotlarga talab va logistika uchun qulay sharoitlar bo'lsa-da, mazkur salohiyatdan yetarlicha foydalanilmayotgani qayd etildi.

Taqdimotda mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash hisobiga yangi mahsulot turlarini o'zlashtirish va eksportni kamida ikki barobarga oshirish mumkinligi ta'kidlandi.

Joriy yilda Toshkent, Navoiy va Jizzax viloyatlarida “yashil” mineral o'g'itlar, sian tuzlari, kaliy ksantogenat, kaliy sulfati

kabi yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar chiqaradigan loyihalar ishga tushdi. Ushbu yangi mahsulotlar eksportini oshirishni hozirdan hisob-kitob qilish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Kelgusi yilda 4,5 million tonna paxta yetishtirish maqsad qilingan. Buning uchun fosforli o'g'itlarning zaxirasini tayyorlash, o'g'it ishlab chiqaruvchilarga yetarli miqdorda sulfat kislotasini yetkazib berish vazifasi qo'yildi. Fermerlarni o'g'it bilan ta'minlash uchun imtiyozli kreditlar ajratish ishlarni tezroq boshlash zarurligi ta'kidlandi.

Prezidentimiz kimyo sanoati mamlakat iqtisodiyotidagi strategik tarmoq ekanini ta'kidlab, ichki bozorni barqaror ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratish yuzasidan aniq topshiriqlar berdi.

O'ZA.

PREZIDENT OLIMPIADASI O'YINLARINING G'OLIB VA SOVRINDORLARI HAMDA BARCHA ISHTIROKCHILARIGA

Aziz farzandlarim!

Hurmatli ota-onalar, ustoz va murabbiylar!

Avvalo, barchangizni Vatanimiz hayotida o'chmas iz qoldirgan Prezident Olimpiadasi o'yinlaridagi muvaffaqiyatli ishtirokingiz bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Albatta, saralash bosqichlarida 100 mingdan ziyod o'g'il-qizlarimiz orasida g'olib va sovrindor bo'lgan 3 ming nafarga yaqin sizdek eng kuchli va navqiron sportchilarimizning munosib ishtiroki tufayli bu musobaqalar O'zbekiston sporti noyob tizim bo'lib shakllanganini bugun chuqur mamnuniyat bilan ta'kidlashga haqlimiz.

Qariyb o'n kun davom etgan qizg'in va murosasiz bellashuvlarda erishilgan g'alabalar, rekord natijalar bu fikrni yaqqol isbotlab turibdi.

Ayniqsa, og'ir atletikachi qizlarimiz Shahnoza Haydarova, Mohinur Esonboyeva, yengil atletikachimiz Sadafonu Nusratulloeva O'zbekiston rekordini yangilagan, yunon-rum kurashi bo'yicha 17 yoshli Qamariddin Xudoyberganov amaldagi Osiyo va jahon chempionlarini, Komila Sultanova, Umarali Abdujabborov, Miraslava Omelchenko kabi taekvondochilarimiz esa mamlakat chempionlaridan ustun kelib, eng yuksak shohsupalarga ko'tarilgani tahsinga sazovordir.

Yana bir muhim jihati – bundan to'rt yil oldin yo'lga qo'yilgan “Besh tashabbus olimpiadasi” tizimida kashf etilgan iqtidorli yoshlarimizdan 23 nafari ushbu Olimpiadaning g'olib va sovrindorlariga aylandi.

Bularning barchasi Prezident Olimpiadasining yoshlarimiz uchun g'oyat mas'uliyatli bellashuvga aylangani va o'zining shonli an'analarini shakllantira boshlaganini ko'rsatadi.

Aminman, sport sohasidagi ilk qadamlarini qadrdon mahallasidan boshlagan, bugun o'z hududining sharafigi dadil himoya qilgan bu farzandlarimiz kelgusida jahon arenalarda Vatanimiz shuhratini butun dunyoga tarannum etadi.

Qadrlı sportchi yoshlar!

Sizlarning ishtirokingizda bo'lib o'tgan bellashuvlarni biz butun xalqimiz bilan birgalikda katta qiziqish va hayojan bilan kuzatib, Yangi O'zbekistonda yuksak salohiyatli olimpiya zaxiralari yetishib kelayotganidan qalbimiz quvonch va

iftixorga to'ldi.

Musobaqaning g'olib va sovrindorlari, ularning ota-onalari va murabbiylarini alohida qutlagan holda bir fikrni ta'kidlab aytmoqchiman. Aslida bunday musobaqalarda ishtirok etishning o'zi ulkan baxt, ulkan yutuq. Chunki bu o'yinlar sizlarning qalbingizga Olimpiada ruhi, Olimpiada g'oyalarini olib kiradi, jahon arenalari sari dadil borishda katta tajriba va mahorat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Hech shubhasiz, biz bu tizimni yanada takomillashtirib, uning tarkibiga kelgusi yildan boshlab suv sporti, velosport, triatlon, qilichbozlik va jamoaviy sport turlarini ham kiritamiz. Olimpiadamizning har bir bosqichiga xalqaro sport mezonlari to'liq tatbiq qilinadi va yuqori mahoratli sportchilarni tayyorlash uchun trenerlarni zamonaviy metodologiya va yondashuvlar asosida o'qitish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, musobaqalar natijalarini ochiq va shaffof usulda baholash uchun hakamlarning malakasi oshirib boriladi, sport turlaridan kelib chiqib, sport maktablari va to'garaklardagi sharoitlar yaxshilanadi.

Ana shu ishlarni amalga oshirishda bu yilgi musobaqalarda to'plagan bilim va tajribangiz, amaliy takliflaringiz bilan sizlar ham munosib ishtirok etasiz, deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, mazkur bellashuvlarning saralash va final bosqichlarini yuksak darajada tashkil etgan hududlarimiz, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari hamda mutasaddi shaxslarga, sport federatsiyalari, oliy o'quv yurtlari, texnikum va maktablar jamoalariga, jonkuyar volontyorlarimizga, yoshlarimizni qo'llab-quvvatlab turgan barcha sport muxlislariga, ko'p millatli xalqimizga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Sizlar bugun katta marralarni zabt etdingiz. Oldingizda esa bundan ham yuksak dovonlar turibdi.

Barchangizga kelgusi musobaqalarda bundan ham yorqin g'alaba va natijalar yor bo'lishini tilayman.

Tinimsiz izlanishdan, olg'a borishdan hech qachon to'xtamang, aziz farzandlarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

O'ZBEKISTON SPORTIDA NOYOB TIZIM

Mamlakatimizda ilk bor o'tkazilgan Prezident Olimpiadasining tantanali yopilish marosimi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning musobaqa g'oliblari, sovrindorlari va barcha ishtirokchilariga tabrigini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot kotibi Sherzod Asadov o'qib eshittirdi.

Shukuh

Tabrikda qayd etilganidek, saralash bosqichlarida 100 mingdan ziyod o'g'il-qizlar orasida g'olib va sovrindor bo'lgan 3 ming nafarga yaqin eng kuchli va navqiron sportchilarimizning munosib ishtiroki tufayli bu musobaqalar O'zbekiston sporti noyob tizim bo'lib shakllanganini bugun chuqur mamnuniyat bilan ta'kidlashga haqlimiz.

Prezidentimiz tabrigida qariyb o'n kun davom etgan qizg'in va murosasiz bellashuvlarda erishilgan g'alabalar, rekord natijalarni qayd etgan sportchilarga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, og'ir atletikachi qizlarimiz – Shahnoza Haydarova, Mohinur Esonboyeva, yengil

atletikachimiz Sadafonu Nusratulloeva O'zbekiston rekordini yangilagan, yunon-rum kurashi bo'yicha 17 yoshli Qamariddin Xudoyberganov amaldagi Osiyo va jahon chempionlarini, Komila Sultanova, Umarali Abdujabborov, Miraslava Omelchenko kabi taekvondochilarimiz esa mamlakat chempionlaridan ustun kelib, eng yuksak shohsupalarga ko'tarilgani urg'ulandi.

Yana bir muhim jihat – bundan to'rt yil oldin yo'lga qo'yilgan “Besh tashabbus olimpiadasi” tizimida kashf etilgan iqtidorli yoshlarimizdan 23 nafari ushbu Olimpiadaning g'olib va sovrindorlariga aylangani diqqatga sazovor.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

ISLOHOTLAR NATIJADORLIGI VA IQTISODIY YUKSALISH ASOSI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi boʻlib oʻtdi. Unda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotiga oid bir qator qonun loyihalari koʻrib chiqildi. Muhokamalarda asosiy eʼtibor masalalarning dolzarbligi va ahamiyatiga qaratildi.



2026-yil uchun asosiy moliyaviy hujjat koʻrib chiqildi

Deputatlar “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi qonun loyihasini birinchi oʻqishda koʻrib chiqdi.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan Bosh vazir oʻrinbosari – Iqtisodiyot va moliya vaziri J. Qoʻchqorov maʼruza qildi.

Taʼkidlanganidek, qonun loyihasida Oʻzbekiston iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulotning real oʻsish surʼati 2026-yilda 6,6 foizga oshib, aholi jon boshiga 4026 AQSH dollarini tashkil etishi koʻzda tutilmoqda. Oʻsish surʼatlari esa sanoatda 6,4 foiz, qishloq xoʻjaligida – 4,2, bozor xizmatlarida – 14,5, qurilishda 10,2 foiz boʻlishi prognoz qilingan. Inflyatsiya darajasining koʻrsatkichi kamayishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, 2026-yilda konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari prognozi 515,4 trln. soʻm, xarajatlari prognozi 567,0 trln. soʻm miqdorida, konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3,0 foiz, tashqi qarzniing cheklangan hajmi joriy yildagiga nisbatan kamayib, 5,0 mlrd. AQSH dollari miqdorida belgilash koʻzda tutilgan.

Xalq vakillari Davlat byudjeti loyihasining eng muhim jihatlari sifatida byudjeti loyihasi “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida mamlakatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan tamoyillarga qatʼiy amal qilgan holda ishlab chiqilganini eʼtirof etdi.

Davlat byudjeti loyihasida yuqori iqtisodiy oʻsish surʼatlarini taʼminlash, makroiqtisodiy barqarorlik va inflyatsiyani jilovlash, byudjet barqarorligi hamda byudjet taqchilligini past darajada ushlab turish, “yashil” tamoyillarni keng joriy qilish, iqtisodiy oʻsishni taʼminlash orqali ishsizlik hamda kambagʻallikni pasaytirishga qaratilgan aniq choralar belgilangan ijobiy baholandi.

Muhokamada deputatlar loyihada kelgusi yil uchun asosiy soliq va bojxona stavkalarining oʻzgarishidan saqlanib qolmayotganligi byudjet daromadlari iqtisodiy oʻsish hamda soliq bazasining kengayishi hisobiga taʼminlanishiga eʼtibor qaratdi. Shuningdek, soliq maʼmurchiligini takomillashtirishga qaratilgan tizimli choralar mamlakatimiz iqtisodiyotida raqobat muhitini yaratishga xizmat qilishi taʼkidlandi.

Deputatlar 2026-yil uchun Davlat byudjeti toʻgʻrisidagi qonun loyihasida aholi turmush darajasini oshirish, fuqarolarning real daromadlari oʻsishini taʼminlash, ularning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish maqsadida pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorlari yillik inflyatsiya darajasidan yuqori miqdorlarda oshirib borilishi choralarini davom ettirilishini qoʻllab-quvvatladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan ijtimoiy davlat tamoyillari asosida Davlat byudjeti xarajatlarning ijtimoiy yoʻnaltirilgan, 2026-yil uchun Davlat byudjeti qonuni loyihasida ijtimoiy soha uchun ajratilayotgan mablagʻlarning hajmi yil sayin ortib borayotgani xalq vakillari tomonidan ijobiy baholandi.

Loyihada keyingi yilda ijtimoiy soha uchun ajratilgan mablagʻlar 220 trln. soʻmga yetib, ular umumiy xarajatlarning deyarli 55 foiziga teng boʻlmoqda. Davlatimiz

rahbari tomonidan islohotlarning eng ustuvor yoʻnalishi sifatida belgilab berilgan taʼlim sifatini oshirish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga toʻliq javob beradigan tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish uchun Davlat byudjeti xarajatlarning 25,5 foizi miqdorida mablagʻlar taʼlim va fan sohasi, 12,1 foizi sogʻliqni saqlash hamda 4,2 foizi aholini ijtimoiy himoya qilish jami xarajatlari uchun ajratilishi oʻz ifodasini topgani deputatlar eʼtiborida boʻldi.

Muhokamaga boy boʻlgan majlisda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, “Yashil makon” umummilliy loyihasi koʻlamini kengaytirish, sunʼiy intellekti rivojlantirish, mahalla institutini qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan yangi tashabbuslarni deputatlar maʼqulladi.

Xalq vakillari byudjetdan ajratilayotgan mablagʻlardan samarali, oqilona foydalanish borasida davlat organlari va tashkilotlarining masʼuliyati hamda javobgarligini taʼminlash maqsadida parlament va deputatlik nazoratini olib borishi lozimligini taʼkidlashdi.

Majlis davomida byudjet daromadlarini oshirish, soliq bazasini yanada kengaytirish, “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish, byudjet mablagʻlaridan foydalanishda korrupsiya omillari va byurokratik toʻsiqlarni bartaraf etish yuzasidan bir qator taklif va tavsiyalar berildi.

Xususan, OʻzLiDeP fraksiyasi aʼzolari qonun loyihasini konseptual jihatdan maʼqullagan holda unda tadbirkorlik subyektlarini qoʻllab-quvvatlash, yangi ish oʻrinlarini yaratish borasida ajratilayotgan mablagʻlarning yil sayin oshib borayotgani, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy yukini kamaytirish orqali ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan yangicha yondashuvlar aks etganini alohida urgʻuladilar. Ayniqsa, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qatʼiy belgilangan miqdorda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻini toʻlash tartibi bekor qilinib, uning oʻrniga aylanmadan olinadigan soliqqa tortish tizimi joriy etilishi oqibatida tadbirkorlar uchun yanada qulay biznes muhitini shakllantirishga zamin yaratilishi aytib oʻtiladi.

Fraksiya aʼzolari ushbu tizimga oʻtish “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligiga salbiy taʼsir etmasligi uchun tadbirkorlar oʻrtasida keng koʻlamli targʻibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish lozimligini bildirdi.

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi aʼzolari esa maktabgacha taʼlim tashkilotlari, umumtaʼlim hamda ixtisoslashtirilgan maktablarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va mukammal taʼmirlash bilan bogʻliq amaldagi tartib takomillashtirilib, endilikda namakzalashtirilgan holda Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri byudjetlari tomonidan amalga oshirilishini ijobiy baholadi.

Shu bilan birga, ushbu tartibning oʻzgartirilishi qanday natijalar berishi, bu yoʻnalishdagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonlarida ochiqlik va shaffoflikni taʼminlash lozimligini taʼkidlab oʻtdi.

“Adolat” SDP fraksiyasi aʼzolari kelgusi

yilda “Spinal mushak atrofiyasi” tashxisi qoʻyilgan bemor bolalarga tibbiy-ijtimoiy yordam koʻrsatish va dori vositalarini bepul yetkazib berish, odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik tarqalishiga qarshi kurashish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlarni moliyalashtirish masalasiga alohida eʼtibor qaratishdi.

Shuningdek, bolalar, tugʻish yoshidagi, homilador va bola emizuvchi ayollarni profilaktik maxsus preparatlar bilan bepul taʼminlash, otorinolaringologiya xizmatini rivojlantirish xarajatlarga rejalashtirilgan mablagʻlar miqdorining kamayishi bu boradagi tibbiy xizmatlarning sifatiga taʼsir koʻrsatmasligi boʻyicha tahlillar oʻtkazish, zarur boʻlsa, bu masalani qaytadan koʻrib chiqish muhimligi qayd etildi.

OʻZDIP fraksiyasi aʼzolari loyihada ayrim soliqlarning bir qismi mahalliy byudjetlar tasarrufiga oʻtkazilishi hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga yechim topishga yordam berishi, bu esa deputatlarni saylovchilar bilan uchrashuvlarda koʻrilgan masalalarning hal etilishiga, pirovardida mahalliy byudjetlarning mustaqilligi yanada oshishiga xizmat qilishini taʼkidladi.

Shu bilan birga, bu tizim joriy etilishi natijasida mahalliy hokimliklar tomonidan qoʻshilgan qiymat soligʻi toʻlovchisi boʻlgan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan soliq undirilishida bosimning kuchayib ketishi yoxud bu jarayonda korrupsiya holatlari koʻpayishi kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan choralarini koʻrish zarurligini bildirdi.

Ekologik partiya fraksiyasi aʼzolari hozirgi kunda poytaxtimizda yuzaga kelgan murakkab ekologik vaziyat kechiktirib boʻlmaydigan choralarini koʻrishni taqozo qilayotganini hisobga olgan holda, kelgusi yilning byudjetida “havoni sogʻlomlashtirish” boʻyicha davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Toza havo” keng koʻlamli loyihasi bilan bir qatorda “yashil” maqsadlarga erishish uchun “Chiqindisiz toza Oʻzbekiston” va “Ekomeros” loyihalari doirasida amalga oshiriladigan ishlar natijadorligini taʼminlashga yetadigan darajada mablagʻlar ajratilishini taklif etdi.

Savol-javob va muhokamalarga boy boʻlgan majlisda Davlat byudjeti toʻgʻrisidagi qonun loyihasi birinchi oʻqishda konseptual jihatdan qabul qilindi.

Byudjet jarayonidagi huquqiy munosabatlar takomillashtirilmoqda

Majlisda “Byudjet jarayoni takomillashtirilganligi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda koʻrib chiqildi.

Unda “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish doirasida respublika va mahalliy byudjetlar barqarorligini taʼminlash maqsadida byudjet tizimini va byudjet jarayonini takomillashtirishga qaratilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish nazarda tutilgan. Xususan, byudjet daromadlari tarkibini muvofiqlashtirish, xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda, Davlat byudjetining joriy toʻgʻrisidagi hisobot turlarini kengaytirish hamda byudjet tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlarining oʻzaro mutanosibligini taʼminlashga qaratilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalarni ayrim qonun hujjatlarida aks ettirish nazarda tutilgan.

Muhokamada deputatlar Davlat byudjetiga doir barcha hisobotlar Qonunchilik palatasiga faqat Byudjet kodeksida belgilangan audit xulosasi bilan birga kiritilishini qonun hujjatlarida belgilash taʼsirchan parlament nazoratini amalga oshirishga xizmat qilishini ijobiy baholadi.

Ayniqsa, Davlat byudjetining ijrosi toʻgʻrisidagi choraklik hisobotlar Hisob palatasining texkor xulosasi bilan birga Qonunchilik palatasiga kiritilishi hamda hisobot shakllari aniq berilayotganligi bu boradagi ishlarni samarali tashkil etishga ijobiy taʼsir koʻrsatishi taʼkidlab oʻtiladi.

Loyihada byudjet buyurtmachilari tomonidan moliyalashtirish manbalari va miqdorlari aniq boʻlgan shartnomalar tuzish va tegishli tartibda gʻaznachilik organlarida roʻyxatdan oʻtmagan shartnomalar boʻyicha tovarlarni qabul qilib olish hollariga barham beruvchi normalar kiritilganligi deputatlar eʼtiborida boʻldi.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan qizgʻin fikr-mulohazalar, aniqlashtiruvchi savollar bildirildi. Deputatlar 2026-yildan boshlab qaytinchalik xarajatlar smetalarini tuzish jarayonini bekor qilish, uning oʻrniga byudjet tashkilotlari va byudjet mablagʻlari oluvchilarning xarajatlar smetalarini va shtat jadvallarini kelgusi moliya yil uchun tasdiqlash hamda roʻyxatdan oʻtkazishning aniq muddatlarini belgilash yuzasidan taklif va tavsiyalar berdi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Kelgusi yilda soliq siyosatida qanday oʻzgarishlar koʻzda tutilmoqda?

Kun tartibidagi navbatdagi masala – “Soliq va byudjet siyosatining 2026-yilga moʻljallangan asosiy yoʻnalishlari” qabul qilinganligi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi birinchi oʻqishda koʻrib chiqildi.

Muhokamada deputatlar qonun loyihasi bilan tadbirkorlarga mol-mulk, yer, daromad, ijtimoiy, aylanma, qoʻshilgan qiymat soliqlari boʻyicha hisobotlarni soliq organlari tomonidan shakllantirish koʻzda tutilayotganini eʼtirof etgan holda, tadbirkorlar tomonidan soliq hisobotlarini yuritishda xatoliklarga yoʻl qoʻyilishining oldi olinishi hamda ularning vaqti hamda mablagʻlarni tejash imkoniyati yaratilishini ijobiy baholadi.



Shuningdek, xalq vakillari tomonidan qonun loyihasi bilan tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash maqsadida sayyor soliq tekshiruv natijalari boʻyicha moliyaviy sanksiyalarni olti oyga boʻlib toʻlash, kichik tadbirkorlik subyektlariga soliq hisobotlarini taqdim qilmaganlik uchun jarimani 3 barobarga kamaytirish va ular boʻyicha umumiy 1 ta jarima qoʻllanilishi belgilanayotgani eʼtirof etildi. Mazkur oʻzgarish tadbirkorlarga moliyaviy jarimalarni toʻlashda qoʻshimcha yengilliklar berilishi hamda ularning moliyaviy barqarorligi taʼminlanishiga xizmat qilishi taʼkidlandi.

Deputatlar tomonidan soliq organlarining joyiga chiqmagan holda tadbirkorlarga qoʻshilgan qiymat soligʻi toʻlovchisi guvohnomasini berish hamda ushbu guvohnomani 30 kundan ortiq muddatga toʻxtatib turish vakolati soliq organlaridan sud organlariga berilayotgani deputatlar eʼtiborida boʻldi. Mazkur tartib soliq toʻlovchilarning huquq va manfaatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Deputatlar qonun loyihasini iqtisodiyot sohasidagi faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, yuqori qoʻshilgan qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish va tashqi bozorlarga eksport qilishni kengaytirish, aholining daromadlarini oshirish hamda hududlarda barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlashga yoʻnaltirilganligini alohida taʼkidladi.

Xalq vakillari tomonidan Jahon savdo tashkiloti talablariga qonunchiligimizni uygʻunlashtirish, atrof-muhitni asrash, soliq maʼmurchiligini takomillashtirish orqali soliq bazasini yanada kengaytirish hamda tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan choralar qoʻllab-quvvatladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Strategiya ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar

Majlisda deputatlar Bosh vazir oʻrinbosari – Iqtisodiyot va moliya vaziri

J. Qoʻchqorovning “2019 – 2030-yillar davrida Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi” ijrosini taʼminlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi parlament soʻroviga javobini koʻrib chiqdi.

Unda keltirilishicha, mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotga oʻtish boʻyicha keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilib, yalpi ichki mahsulotning uglerod sari hajmini kamaytirish, ekologik xavfsiz texnologiyalarni qoʻllash, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va suvdan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar koʻrilmoqda. Xususan, 2030-yilga qadar belgilangan yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan “issiqxona gazlari” chiqindilarini 2010-yildagiga nisbatan 35 foizga kamaytirish boʻyicha maqsadli koʻrsatkich ortigʻi bilan bajarilgan.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushini kengaytirish maqsadida 2024-yil uchun maqsadli koʻrsatkich 9,0 foiz yoki 8,6 kVt/s belgilangan boʻlib, oʻtgan yil yakuni bilan bu 16 foiz yoki 13 kVt/s tashkil etgan. Kichik quvvatli quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish boʻyicha maqsadli koʻrsatkich 150 MVT etib belgilangan boʻlib, amalda bu 972,0 MVTga yetib, ortigʻi bilan bajarilgan.

“Yashil energiya sertifikatlari” tizimi joriy etilishi natijasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobidan va ekologik jihatdan toza texnologiyalardan foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarish koʻlami kengaygan. Xususan, joriy yilning oʻzida 350 mingdan ortiq “yashil energiya” sertifikatlari savdosi amalga oshirilgan.

Parlament soʻroviga kelgan javobda keltirilganidek, qayta tiklanuvchi energiya manbalari koʻlamini kengaytirish, sohaga davlat subsidiyalari va ragʻbatlantirish mexanizmlari tatbiq etilishi natijasida hozirgi kunga qadar 6 539 MVT qayta tiklanuvchi energiya manbalari ishga tushirilgan.

Majlisda ushbu yoʻnalishda vazirlik tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilayotgani, shu bilan birga, sohada yechimini kutayotgan ayrim masalalar ham borligi aytiladi.

Deputatlar tomonidan bu boradagi ishlarni izchil davom ettirish, kichik biznes va xususiy sektorni “yashil” iqtisodiyotga oʻtish mexanizmlarini yanada kengaytirish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish va natijadorlikni kuchaytirish hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish zarurligi taʼkidlandi.

Majlisda mazkur masala yuzasidan doimiy parlament nazoratini olib borish lozimligi qayd etilib, Bosh vazir oʻrinbosari – Iqtisodiyot va moliya vazirining javobi maʼlumot uchun qabul qilindi.

Parlament soʻroviga kelgan javob muhokama qilindi

Majlisda Oʻzbekiston Ekologiya va iqlim oʻzgarishi milliy qoʻmitasining “2019 – 2030-yillar davrida Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi” ijrosini taʼminlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi parlament soʻroviga javobi koʻrib chiqildi.

Unda keltirilishicha, respublika hududida amalga oshirilayotgan xoʻjalik va boshqa

turdagi faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash yuzasidan 2023 – 2025-yillar davomida 91 412 ta davlat ekologik ekspertiza xulosasi taqdim etilgan.

Davlat ekologik ekspertizasi oʻtkazilgunga qadar moʻljallanayotgan, rejalashtirilayotgan yoki amalda faoliyat koʻrsatayotgan atrof-muhitga taʼsir koʻrsatishning I-II toifaga mansub faoliyat turlari boʻyicha 3 800 ta jamoatchilik eshituvi oʻtkazilgan.

Shuningdek, “Zamin” xalqaro jamoat fondi hamkorligida respublika boʻylab 23 ta avtomatik havo monitoring stansiyasi oʻrnatilgan. Havo sifati va gidrometeor maʼlumotlarini jamoatchilikka yoritish uchun “monitoring.meteo.uz”, “data.meteo.uz” onlayn portallari ishga tushirilgan.

Avtomobil yuvish shoxobchalari oʻz-oʻziga xizmat koʻrsatishga oʻtkazilib, 2351 ta shoxobcha oqova suv tindirgichlar bilan jihozlangan. Bu esa hosil boʻlayotgan oqova suvlarining 60 foizi tozalanishiga va suv resurslari tejalisiga olib kelgan.

Parlament soʻroviga javobda qayd etilganidek, suv obyektlariga toʻgʻridan-toʻgʻri oqova suvlari tushishining oldini olish maqsadida 200 dan ortiq sanoat korxonalarida lokal oqova tozalash inshootlari qurilishi va mavjudlarni modernizatsiya qilinishi taʼminlangan. Buzilgan 5 500 gektarga yaqin yer maydoni esa rekultivatsiyadan oʻtkazilgan.

Chiqindilarni boshqarish va muqobil energiya ishlab chiqarishda xorijiy investorlarni jalb etish boʻyicha Andijon, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Toshkent va Fargʻona viloyatlarida maishiy chiqindilarni yoqish orqali energiya ishlab chiqarishga qaratilgan loyihalar yoʻlga qoʻyilgan.

Shu yil oktabr oyida Toshkent shahrida Global ekologik markirovkalash tarmogʻining assambleyasi oʻtkazilib, ekologik markirovkalash tizimlari bilan oʻzaro eʼtirof etish toʻgʻrisida kelishuvlar imzolangan. Oʻzbekiston milliy ekologik markirovka sertifikatlari mazkur davlatlarda tan olinishini taʼminlash uchun zamin yaratdi.

Majlisda deputatlar ushbu yoʻnalishda amalga oshirilgan ishlarni eʼtirof etib, atrof-muhitga yuqori taʼsir koʻrsatish xavfiga ega boʻlgan, atmosfera havosiga zararli tashlamalar chiqaruvchi va meʼyoriydan ortiqcha ifloslangan ishlab chiqarish oqova suvlarini hosil qiluvchi korxonalar holatini baholash hamda zararli tashlamalarni kamaytirish boʻyicha chora-tadbirlarni kuchaytirish lozimligini qayd etishdi.

Majlisda deputatlar parlament soʻroviga yuborilgan javobni atroflicha muhokama etib, uni maʼlumot uchun qabul qilindi.

Energetika vazirining axboroti eshitaladi

Majlisda Oʻzbekiston Respublikasi energetika vaziri J. Mirzamahmudovning “Energiya taʼminoti barqarorligini taʼminlash, aholiga xizmat koʻrsatish sifatini yaxshilash hamda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik yuzasidan amalga oshirilgan ishlar toʻgʻrisida”gi axborotini eshittish haqidagi masala koʻrib chiqildi.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda energetika sohasini jadal rivojlantirish, energiyani tejash, undan oqilona foydalanish, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror, uziksiz va sifatlí elektr energiyasi bilan taʼminlash, aholiga koʻrsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash borasida keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda. Sohaning huquqiy asoslari takomillashtirilib borilmoqda.

Shu bilan birga, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan joylarga chiqib oʻrganishlar jarayonida isteʼmolchilarga sifatlí va uziksiz elektr energiyasi yetkazib berish bilan bogʻliq ayrim masalalar kuzatilmogʻda.

Deputatlar tomonidan energiya taʼminotidagi mavjud muammolar, ularni bartaraf qilish boʻyicha koʻrilayotgan choralar, sohaga joriy etilayotgan yangiliklar, infratuzilmalarni modernizatsiya qilish hamda aholiga xizmat koʻrsatish jarayonini takomillashtirish boʻyicha amalga oshirilgan ishlar holatini muhokamadan oʻtkazish lozimligi taʼkidlandi.

Majlisda shundan kelib chiqib, Energetika vazirining axborotini eshittish boʻyicha qaror qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

AHOLI TASHABBUSLARINI ILGARI SURISH UCHUN MAXSUS FORUM OʻTKAZILADI

Mamlakatni bilimli, fidoyi va shijoatli insonlar rivojlantiradi. Oʻzbekistonda barcha islohot va rejalar xalqimizning talab va takliflariga tayanadi.



Endi buning uchun qulay imkoniyat bor – “Kelajak uchun” forumi istiqbolli tashabbuslar yoʻllanadigan ochiq muloqot maydoni. Undan asosiy maqsad soha va hududlarni rivojlantirishga jamoatchilikni jalb etish, aholi takliflarini yuzaga chiqarish, islohotlarning xalqchilligini taʼminlashdir.

Forum Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-iyuldagi “Islohotlarni amalga oshirishda istiqbolli tashabbuslarni yanada qoʻllab-quvvatlash

boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Farmoniga muvofiq oʻtkaziladi. Buning uchun masʼul tashkilotlar hamkorligida tizim yoʻlga qoʻyildi, “kelajakuchun.gov.uz” kraud-platformasi ishga tushirildi.

Forum 3 ta bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda tashabbuskorlar, shu jumladan, xorijdagi vatandoshlarimiz mazkur kraud-platformaga kirib, “One-ID” orqali roʻyxatdan oʻtadi. 5 ta ustuvor

yoʻnalishdan birini tanlab, taklif va loyihalar mazmunini yozadi. Platformada har bir fuqaro 5 tagacha tashabbus yoʻllashi hamda jamoa boʻlib qatnashishi mumkin.

Ikkinchi bosqichda barcha yoʻllangan tashabbuslar ekspertlar tomonidan oʻrganib chiqiladi, ularning tavsiyasi asosida takomillashtiriladi. Yakunda eng muhim deb topilgan tashabbus va gʻoyalar keyingi bosqichga oʻtadi.

Uchinchi bosqichda mualliflar oʻz tashabbuslarini Mentorlar kengashi ekspertlariga taqdimot qiladi. Muhokamalarda eng dolzarb deb topilgan tashabbuslar “TOP – 50” va “TOP – 10” tarzida saralanadi.

Forumning yakuniy bosqichi Toshkent shahrida

oʻtkaziladi. Uning sanasi va aniq joyi haqida qoʻshimcha xabar beriladi.

Gʻolib deb topilgan 10 ta eng ilgʻor tashabbus Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdimot qilinadi. Yakunda maʼqullangan tashabbuslar hayotga tatbiq etiladi. Ularning mualliflari moddiy ragʻbatlantirilib, loyihalar davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanadi.

Tanlangan tashabbuslarni tijoratlashtirish va moliyalashtirishga Biznesni rivojlantirish banki hamda boshqa tijorat banklari, Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi mablagʻlari yoʻnaltiriladi.

Forumga kelib tushgan boshqa tashabbuslar davlat dasturlari, tarmoq yoki hududlar boʻyicha

“yoʻl xaritalari”ni shakllantirish uchun Hukumat tomonidan koʻrib chiqiladi. Forum doirasida barcha jarayonlar Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi tomonidan

O'ZBEKISTON SPORTIDA NOYOB TIZIM



umumta'lim maktablari to'garaklari va sport klublari a'zosi. Quvonarlisi, ishtirokchilarning 35 foizini, ya'ni 36 ming 700 nafarini qizlar tashkil qildi.

Avgust oyida o'tkazilgan ikkinchi "Hududiy bosqich"da saralashdan o'tgan 13,3 ming sportchi hamda ixtisoslashtirilgan sport maktablari va Olimpiya zaxiralari maktablarining 6,3 ming

nafar sportchisi bellashdi.

So'nggi, uchinchi – Prezident Olimpiadasining final bosqichi. Unda, yuqorida aytilganidek, 3 ming nafarga yaqin yosh atletlar ishtirok etdi. Qatnashchilarning aksariyati hududlardan 1-o'rinni olgan g'oliblar, 1 161 nafari esa Olimpiya va Paralimpiya markazlaridan to'g'ridan-to'g'ri finalga tavsiya qilingan sportchilardir.

Prezident Olimpiadasi ko'rsatdiki, ushbu musobaqa yangi iqtidorlarni kashf etish maydoni, yirik sport loyihalarining mustahkam paydevoridir.



– Bu yilgi bellashuvlar 15 – 17 yoshli sportchilar o'rtasida 10 ta Olimpiya sport turi bo'yicha o'tkazildi, – deydi Sport vazirligi axborot xizmati rahbari Nurbek Salomov. – Ular boks, dzyudo, taekvondo, og'ir atletika, erkin kurash, yunon-rum kurashi, yengil atletika, badiiy gimnastika, stol tennis va basketbol.

Olimpiya shaharchasida 8 ta sport turi bo'yicha bahslar o'tkazilgan bo'lsa, badiiy gimnastika musobaqalari Gimnastika bo'yicha ixtisoslashtirilgan maktabda, og'ir atletika

yangi mehmonxona majmuasi, davlat Sport akademiyasi, Paralimpiya markazi hamda universitet yotoqxonalarga joylashtirildi.

Musobaqa jarayonlari to'liq raqamlashtirilib, ishtirokchilar "ERP.sport" tizimida ro'yxatdan o'tkazildi. Barcha natijalar onlayn qayd etib borildi. Bu nafaqat shaffoflik, balki murabbiy va federatsiyalar uchun ham sportchilarning rivojlanish dinamikasini aniq tahlil qilib borish imkonini yaratadi. Bir vaqlar qayta-qayta qog'ozda yuritilgan ma'lumotlar o'rni raqamli tizim egallashi sohadagi

kiradi, jahon arenalari sari dadil borishda katta tajriba va mahorat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

– Musobaqa juda ko'tarinki ruhda tashkil etildi, – deydi yengil atletika bo'yicha oltin medal sohibasi Sadafbonu Nusratulloeva. – Qatnashuvchilar uchun bekamu ko'st sharoitlar yaratildi. Yangi ochilgan Sport akademiyasida mashg'ulotlarni olib borganimiz bizni yanada ruhlantirdi. Ushbu nufuzli musobaqada ikki ming metrga to'siqlar osha yugurish bo'yicha qatnashib, g'olib bo'ldim. Kelgusida xalqaro musobaqalarda ham ishtirok etib, mana shunday yuksak natijalarimiz bilan yurtimiz sharafigi yanada yuqoriga ko'taramiz.

Qoraqalpog'istonlik taekvondochi opa-singil Ayjamal va Farangiz Mirmanovalar esa o'z taassurotlarini shunday izhor qiladi:

– Mazkur musobaqa biz, yoshlar uchun yurtimizda beqiyos imkoniyatlar yaratilganining yana bir ifodasi bo'ldi. Biz ulardan unumli foydalanishimiz, o'z iqtidorimizni namoyon etishimiz, qadamba-qadam charxlab, kuchaytirib borishimiz, maqsadlarimiz sari tinmay intilishimiz va izlanishimiz kerak. Biz bolalik paytlarimizdanoq taekvondoga qiziqib, shug'ullanib kelimiz. Ko'plab natijalarga erishdik, O'zbekiston chempioni bo'ldik. Xalqaro musobaqalarda g'olib chiqdik. Prezident Olimpiadasi butun O'zbekiston yoshlarida katta qiziqish uyg'otdi. Bunday nufuzli turnirlar biz kabi sportchilar faoliyatida yangi ufqlar ochishiga ishonchimiz komil.

Yosh sportchilar hayotida yangi sahifa ochgan musobaqa tizimi kelgusida yanada takomillashtiriladi. Kelasi yildan sport turlari 20 taga yetkazilib, suv sporti, velosport, triatlon, qilichbozlik va jamoaviy o'yinlar ham tizimga qo'shiladi. Olimpiadaning har



bir bosqichiga xalqaro sport mezonlari to'liq tatbiq qilinadi va yuqori mahoratli sportchilarni tayyorlash uchun trenerlarni zamonaviy metodologiya va yondashuvlar asosida o'qitish tizimi yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, musobaqalar natijalarini ochiq va shaffof usulda baholash uchun hakamlarning malakasi oshirib boriladi, sport turlaridan kelib chiqib, sport maktablari va to'garaklardagi sharoitlar yaxshilanadi.

Musobaqa yakunida g'oliblar maxsus sovrinlar, pul mukofotlari, Olimpiya va Paralimpiya markazlariga qabul, stipendiya bilan rag'batlantiriladi. Bu yosh sportchilar uchun haqiqiy trampolin, katta sportga yo'llanma bo'ladi.

Bugun mamlakatimizda iqtidorli sportchilarni saralab olishga yo'naltirilgan bunday seleksiya tizimi minglab yoshlarning orzusini ro'yobga chiqaradi. Terma jamoalarni haqiqiy iste'dodlar bilan boyitishda halollik va shaffoflikni ta'minlaydi.

Dilshod KARIMOV,
Ulug'bek RO'ZIMATOV
("Xalq so'zi").

MAHALLADA SERVIS
KOMPANIYASI

Sardoba tumanidagi "Do'stlik" mahalla fuqarolar yig'ini hududida servis kompaniyasi tashkil etildi. Unda elektr ustasi, santexnika, yerga ishlov, daraxtlarga shakl berish, oqova xandaqlarini qurish va tozalash, qaduf qazish kabi 23 ta xizmat mavjud.

Qulaylik

Ushbu servis kompaniyasi mahalla hududidagi 2,5 km. ariqlar, piyodalar yo'lagi va 9 ta ko'chaning tozaligini ham ta'minlab kelmoqda. Shu bilan birga, chiqindilarni to'plash, saralash shoxobchasi qurildi.

– Hozircha viloyatimiz tuman-shaharlarida bittadan mahallada servis kompaniyalari faoliyat yuritmoqda, – deydi O'zbekiston mahallalari uyushmasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi boshlig'i Uyg'un Xatamov. – Aytish lozimki, namuna sifatida tashkil etilgan mazkur

xizmat ko'rsatish majmualari kutilganidan-da yuqori natija berdi. Mahallalar ahli, ayniqsa, chekka hududda yashovchilar turli xizmatlar uchun shaharga yoki tuman markaziga bormaydigan, ortiqcha vaqt va xarajat qilmaydigan bo'ldi. Servis kompaniyalarining xizmatlari yanada ko'payadi va tez orada 25 taga yetkaziladi hamda viloyatimizdagi 221 ta mahallaning barchasida ana shunday servis kompaniyalariga asos solinadi.

Ahmadali
SHERNAZAROV
("Xalq so'zi").

REKLAMA

“Elektron
Rieltor” MChJ

to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar o'tkazish yo'li bilan tashkillashtiriladigan ko'chmas mulklar va ularga bo'lgan huquqlar bo'yicha o'tkaziladigan savdoga taklif etadi!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-apreldagi PQ-142-sonli qaroriga asosan "O'zsanoatqurilishbank" ATB balansida bo'lgan:

– Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, "Yuksalish" MFY, Toshkent shohko'chasi, 4-uyda joylashgan 28-xonadon sotiladi. Boshlang'ich bahosi: 370 479 794 so'm.

Sotish sharti: 3 yil muddatga boshlang'ich 20 foiz to'lov, yillik 14 foiz ustama haq to'lash sharti bilan, grafik (annuitet) to'lash sharti asosida.

Savdoga qo'yilgan mulk bilan bevosita joyiga chiqib tanishish mumkin.

Savdoda ishtirok etish uchun talabgorlar e-rieltor.uz platformasi orqali ariza berishi mumkin.

Call-markaz: +99855-517-22-20.
Rasmiy saytimiz: www.e-rieltor.uz

UCHINCHI RENESSANSGA POYDEVOR
ILM-MA'RIFAT USTIGA QURILADI

Ayni paytda dunyodagi globallashuv bois axborot xurujlari, turli ekstremistik va radikal g'oyalar, "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi axloqsizliklar ayrim yoshlar ongiga salbiy ta'sir o'tkazayotgani hech kimga sir emas. Shuning uchun ham yurtimizda kuchli ma'naviy immunitetga ega shaxslarni tarbiyalash orqali yoshlarni bunday salbiy ta'sirlardan himoya qilish, ularni vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida keng ko'lami ishlar amalga oshirilayotir.

Mushohada

Zero, kuchli ma'naviy asosga ega jamiyatda o'zaro hurmat, totuvlik, mehr-qibat, adolat hamda tartib hukm suradi. Bu ijtimoiy birikni mustahkamlab, turli nizolar, qarama-qarshiliklar va jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qiladi.

O'zbekiston – buyuk allomalar, mutafakkirlar, shoirlar va ulamolar yetishib chiqqan yurt. Imom Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlarimizning ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish, keng targ'ib qilish hamda ularning ishlarini davom ettirish milliy g'urur va ma'naviy yuksalish manbai hisoblanadi.

Ma'naviyat haqida so'z ketganda, Prezidentimiz uni davlat qurilishi hamda jamiyat taraqqiyotining poydevori sifatida alohida ta'kidlaydi. Bu bejiz emas. Axir, insonning ma'naviy kamoloti uning axloqiy fazilatlarini, go'zallikni his qilish qobiliyatini, badiiy didi, bilimga chanqoqligini bilan chambarchas bog'liq. Ma'naviyatga e'tibor berish orqali har tomonlama yetuk, fikrlovchi va kreativ shaxsni tarbiyalash ko'zda tutiladi. Mamlakatimizda ma'naviyatga berilayotgan e'tibor, bu nafaqat tarixiy adolatni tiklash, balki kelajak avlodlarni milliy qadriyatlarga sodiq, o'z yurtining haqiqiy farzandi etib tarbiyalash, barqaror, adolatlari va farovon jamiyat qurishga qaratilgan strategik yo'naltirish.

Darhaqiqat, dunyodagi murakkab jarayonlar, insonlar qalbini zabt etishga qaratilgan mafkuraviy xurujlar, mintaqamiz atrofidagi kechayotgan keskin kurashlar har birimizni, ayniqsa, ziyolilarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarning nafaqat ishtirokchisi, balki tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishni, odamlarning ma'naviyati, siyosiy ongi va siyosiy madaniyatini



yuksaltirish, ularni uyg'otish uchun chinakam jonbozlik ko'rsatishni taqozo etyapti.

Harakatlar natijaga
aylanishi kerak

Bugun yoshlarni yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash bilan bog'liq barcha sa'y-harakatlarimizni natijaga, natijalarimizni esa davomiylikka aylantirish zarur. Hozirgi davr – tezkor. To'xtash ortga, harakatsizlik mag'lubiyatga, sukunat esa g'oyalar hujumiga olib keladi. Ya'ni globallashuv sharoitida kun tartibiga, avvalo, inson ongi va qalbini zabt etish marrasi qo'yilmoqda. Kurashlar keskin tus olayotgan bir davrda xalqaro maydonda yoshlarni har qanday xavf-tahdidlardan asrash, ularning mustaqil fikri, e'tiqodi hamda qat'iy hayotiy pozitsiyasini shakllantirish eng muhim va kechiktirib bo'lmas vazifalardan biridir.

Prezidentimizning "Bugungi kunda har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo'lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur", degan fikri yurtimizning taqdiriga befarq bo'lmagan har bir o'zbek farzandi uchun hayotiy shior bo'lishi kerak. Chunki g'oyaviy qurol yordamida inson ongi va qalbi nishonga olinayapti.

Boshqacha aytganda, kishilar ongi jang maydoniga aylangan, axborotdan esa vayronkor qurol

sifatida foydalanilmoqda. Bu qurol yordamida onga berilgan zarbalar kishini adashtradi, uni o'z manfaatiga zid harakat qilishga undaydi, demak, insonni boshqarish, uning ustidan hukmronlikni o'rnatish imkonini beradi. Bunga yo'l qo'ymaslikning yagona yo'li har birimizning uyg'og'ligimizdir. Bugun jamiyat uyg'og', har qanday g'oyaviy tahdidlarga ogoh bo'lishi fuqarolarning faolligi, dalldorlik hissi bilan yashashida seziladi. Uyg'og' fikrlarni tarbiyalash bugun oldimizga qo'ygan asosiy maqsad va vazifalarimizdan biridir.

Buyuk ajdodimiz Imom Moturidiyning "Elu yurt bilan hamdard bo'lib yashagin, toki xalq hamisha sen bilan birga bo'lgay", degan hikmatli so'zlari bor. Bugun Prezidentimiz boshchiligidagi xalq bilan muloqot qilish, ularni tinglash siyosat darajasiga ko'tarildi. Har qanday islohotlar, avvalo, xalq bilan kelishilib, hamfikirlikda, hamjihatlikda olib borilmoqda. Har qanday islohotning samarali amalga oshishi jamiyatning unga bildirayotgan munosabati, fidoyiligi, tashabbuskorligi, ma'rifatligi va daldorligi bilan bog'liqdir.

Ma'rifat – ilm-fan, zamonaviy kasb-hunarlarini egallash, ilmiy tadqiqotlar degani. Bejizga jaded bobolarimiz yurtini taraqqiyotga olib chiqish uchun yagona najot sifatida ilmi ko'rmagan. Zero, najotni tarbiya, qadriyatlar bilan uyg'un bo'lgan bilimiga bera oladi.

Imoratning poydevori baquvvat
bo'lsin

Yoshlar – bizning tayanchimiz, ertangi kundan umidimiz, savob ishlarimizning davomchilari, deb ko'p gapiramiz. Nafaqat xavfsizligimiz, davlatimizning kelajakda barqaror bo'lishi ham yoshlarimiz dunyoqarashi qanday shakllanishiga bevosita bog'liq. Imoratning poydevori chunchalik baquvvat bo'lsa, imorat ham shunchalik umrboqiy turadi. Zaif poydevor ustiga qurilgan har qanday bino qulab tushishi taqin.

Mamlakatimiz poydevori, shubhasiz, aholining 60 foizdan ko'prog'ini tashkil etgan yoshlardir. Shu sabab ham bugun dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlarni tahlil qilishda ularga,

eng avvalo, ma'naviyat ko'zi bilan qarash, hayotimizga kirib kelayotgan, axloqimizga, mentalitetimizga zid g'oyalarni aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga mos kelmaydigan jihatlarni ochib berish va tabiiyki, zarur choralar ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo'sh, mentalitetimizga zid g'oyalar, axborot xurujlari qayerdan kirib kelyapti? Odamlarni hokimiyatdan norozi bo'lishga chorlayotgan, qildan qiyiq qidirishga intilayotgan kuchlar qanday ish ko'ryapti? Axir, tuppa-tuzuk barqaror davlatlarni beqaror o'lkalarga aylantirayotganlar internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmadimi?

Shuning uchun internet tarmog'ida axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotir. Ya'ni global axborot makoniga teran ko'z bilan qarasa, unda mavjud barcha axborotlarni ham foydali va beziyon, deb bo'lmaydi. Xususan, ayni paytda internet tarmog'ida o'z joniga qasd qilishning oson yo'llarini targ'ib etuvchi to'qqiz ming, pornografik mazmunga ega to'rt mingdan ziyod saytlar, shuningdek, zo'ravonlik va yovuzlik ruhida kompyuter o'yinlari borki, ular milliy qadriyatlarimizga zid hamda yosh avlod tarbiyasiga to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas.

Internetni cheklab qo'yish yoki axborot olishni taqiqlash bilan muammo hal bo'lmasligi barchamizga ayon. Shunday ekan, ongi va dunyoqarashi endigina shakllanayotgan yosh avlodning ma'naviy olami daxsizligini asrash oldimizda turgan eng muhim masalalardan biridir.

Ta'lim-tarbiya uchun faqat mutasaddilar mas'ul, desak yangilashimiz. Shu Vatan, shu yurt, shu yoshlar bizniki, ertaga kelajagimiz porloq bo'lishini istasak, bugun barchamiz bahamjihat harakat boshlashimiz kerak. Yurt taqdiriga loqaydlik, korruptsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik hamda yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarning oldini olishda hamkorlikning o'rni katta. Zero, ulug' maqsad – uchinchi Renessansga poydevor qo'yish va uni barpo etish, avvalo, xalqimizning tafakkurini yuksaltirishdan boshlanadi.

Qahramon SHONAZAROV,
Toshkent amaliy fanlar universitetining
Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori.

Xalq so'zi

Nardnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 10 379 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yubkub olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyrga kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Bobojonov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 01.50 Topshirildi – 02.00 1 2 3 4 5 6